



ZID MA`NOLI SO`ZLAR MAVZUSI YUZASIDAN BAJARILADIGAN TOPSHIRIQLAR (5-6- sınıf o`quvchilari uchun)

Axmedova Dildora Dilshodovna

QDU Lingvistika: o`zbek tili yo`nalishi 2-kurs magistranti

Tel: 998 91 461 50 15

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda zid ma`noli so`zlar o`quv izohli lug`ati va uning yaratilishi masalasi dolzarb bo`lib kelmoqda. Sababi, maktab o`quvchilari hamda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining tabiatiga, yosh xususiyatiga ko`ra o`zbek tili antonimlarining o`quv izohli lug`atlari yaratilmagan. Bolalar va o`quvchilar nutqi lingvokognitiv asoslarda rivojlanib boradi. Zid ma`noli so`zlar o`quv lug`atlarini lingvokulturologik va lingvokognitiv aspektlarda o`rganilmaganligi muammoning dolzarbligini ko`rsatadi.

ANNOTATION

Today, the issue of educational explanatory dictionary of words with opposite meanings and its creation is becoming relevant. The reason is that, according to the nature of the speech of schoolchildren and children of pre-school age, educational explanatory dictionaries of Uzbek antonyms have not been created. Speech of children and students develops on linguistic and cognitive bases. The fact that words with opposite meanings have not been studied in linguo-cultural and linguo-cognitive aspects of educational dictionaries shows the urgency of the problem.

Kalit so`zlar: Antonimlar, maktab o`quvchilariga tavsiya qilingan topshiriqlar, leksik birliklar, so`z va qo`shimchalarning o`zaro zid ma`noli munosabati.

Tezkor va shiddatli davr til ta`limidan har qanday sharoitda muammoga yechim topa oladigan, nutqiy salohiyati yuqori bo`lgan, muammoga, vaziyatga holis nuqtai nazar bilan qaray oladigan, lisoniy birliklardan unumli va samarali foydalana oladigan shaxsni kamol toptirishni maqsad qilib qo`ydi. Bu ustuvor maqsadlarni amalga oshirishda til t a`limi asosiy va yetakchi o`rin tutadi. Negaki, insonning shaxsiy rivojlanishi uchun leksik bazasi yetarli darajada boy bo`lishi, fikrlash salohiyati rivojlanishi uchun o`z tilidagi leksema va leksik birliklarni mazmun-mohiyatini chuqur bilmog`i, nutq sharoitiga mos tarzda so`zlash malakasiga ega bo`lmogi lozim. Yevropa sivilizatsiyasining negizida yevropaliklarning miloddan



avvalgi VI asrlardan boshlab yashab ijod etgan yuzlab jahon falsafasi vakillarining rang-barang haqiqat manzaralaridan bahramand bo`lganligi, o`zlari uchun fikr-mulohazalar, o`gitlar, dunyoqarashlar, ogohlantirishlar va tavsiyalar olib, hikmatlardan zavq olib yashaganliklari sir emas. Yunon –Rim mamlakatlarda notiqlik san`ati va ritorika sohasiga bundan ming va yuz yillar oldin qiziqish boshlangan va rivojlangan. O`rta Osiyo, xususan o`zbek tilshunosligida ham bugun sistemaviylikdan amaliy, nutqiy protsessga ahamiyat qarata boshlandi. Buni davr taqozosi ham deyish mumkin, aslida. Maktab darsliklarida sistemaviylikdan voz kechib, o`quvchilarning nutqiy sharoitlarga tayyorlash, ularning nutqiy rivojlanishini shakllantirishga ilk qadamlar qo`yildi. Shuning bilan bir qatorda, til sathlarining nutq jarayonida eng ko`p qo`llanadigan bo`limlarini atroflicha ko`rib chiqish, maktab darsliklarida ularga ko`proq ahamiyat qaratish lozimligini bugungi yangi avlod darsliklari isbot etdi.. Leksikologiya bo`limida o`rganiladigan sinonimlar, antonimlar, omonimlar, shular jumlasidandir.5-sinf darsligida bu bo`limga yetarlicha amaliy ahamiyat qaratilmagan.(amaldagi 5-sinf ona tili darsligi 2020 y) Zid ma`noli so`zlar yuqorida to`xtalganidek, biri aytilganda ikkinchisi ya`ni zidi inson ongida tayyor turadi. Zid ma`noli so`zlarining ahamiyatini maqollar, iboralar, so`zlar, qo`shimchalar misolida keng tushuntirib berilgani bilan o`quvchilar hayotida amaliy ahamiyat kasb etmasa, bugungi til ta`limi oldidagi ustuvor maqsad yetarlicha amalga oshmagan hisoblanadi. Qachonki, berilayotgan mavzu asosida amaliy –nutqiy fikrlashga yo`naltirilgan maqsadli mashqlar, topshiriqlar ishlab chiqilsa o`quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash, nutq vaziyatiga ko`ra fikr bildira olish ko`nikmalari shakllantiriladi. Ularda zukkolik, topqirlik, o`ziga bo`lgan ishonch, berilganlar ichidan munosibini tanlash, ularni tekshirish, zidlash, tahlil qilish kabi ongda bajariladigan bilish jarayonlari bevosita amalga oshadi. O`quvchilar quyida berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish ko`nikmalariga ega bo`lib borishsa, ko`zlangan maqsadga erishiladi. Ularda ongda mantiqiy fikrlash va o`sish jarayoni kuzatiladi.

Zid ma`noli so`zlar mavzusi yuzasidan 5-6-sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan tavsiya va topshiriqlarni ko`rib chiqamiz:




I Berilgan so`zlar va ramziy chizgilar o`rtasida bir-biriga bog`liqlik bor, kuzating!



Quyidagi so`zlarning ramziy chizgilarga mosini belgilang

YAXSHI-YOMON| TOZA-POK BALAND-PAST| KATTA-KICHIK|



II BIRINI TANLANG!



va



dagi so`zlar o`rtasida ma`nodoshlik mavjud



dagi so`zlar o`rtasida zid ma`nolilik mavjud



Shunga ko`ra qaysi to`g`ri?



A) qiyin

kuch

oson

B) iflos

pok

toza

C) kichik


ayol

katta

D) yomon

ochko`z

yaxshi



III Zaynab bir so`z o`yini o`ynamoqda. O`yining qoidasiga ko`ra so`zlarni zid ma`nolilarini topib juftlash kerak. Qaysi do`siti vazifani to`g`ri bajargan deb o`ylaysiz?

1. **Aziza** ► obod-xaroba, jazo- mukofot, sevindi-xafa bo`ldi
2. **Sardor** ► olis-xabarsiz, jazo-mukofot, yaqin-sevindi
3. **Soliha** ► jazo-mukofot, obod-xroba, sevindi-xafa bo`ldi, olis-yaqin.



**IV QUYIDAGI BERILGAN SO`ZLARNING ZID MA`NOLARINI TOPIB
JOYLASHTIRING.**

G	KO`P
	ANIQ
	MAXFIY
	MAMNUN
	LOQAYD
	KUNDUZ
	ZAIF
	MAYIN
	G`OLIB
	MUKOFOT
	QO`POL
	NODON
	OLIS
	BEOQIBAT
	ODDIY
	YASHIRIN
	OXIRGI
	OG`IR
	PAST

A	BALAND
B	YENGIL
V	DASTLBKI
G	OZ
D	NOANIQ
E	OSHKORA
J	XAFA
Z	FAOL
I	KECHA
K	KUCHLI
M	DAG`AL
H	MAG`LUB
O	JAZO
P	MULOYIM
C	DONO
T	YAQIN
U	OQIBATLI
F	MURAKKAB